



OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**III kurs "B" guruh talabasi**

*Salimova Shahnozaning*

*O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi fanidan*

*"O'quvchilarni badiiy asar mazmunini qayta hikoyalashga  
o'rgatishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish"*

*mavzusida yozgan*

# **KURS ISHI**

**Ilmiy rahbar: M. Xudoyorova.**

**Navoiy - 2019**

## **Mundarija:**

<b>Kirish.....</b>	<b>3-6-betlar</b>
<b>I bob. Badiiy asar mazmunini o‘quvchilar ongiga singdirishda qayta hikoyalashning zamonaviy ta’limdagi o‘rni.....</b>	<b>7-21-betlar</b>
<b>II bob. Asar mazmunini qayta hikoyalashda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari (8-sinf darsligi asosida).....</b>	<b>22-33-betlar</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>34-35-betlar</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	<b>36-37-betlar</b>
<b>Ilovalar</b>	

## Kirish

Mamlakatimizning har tomonlama ham iqtisodiy-ijtimoiy, ham madaniy-ma'rifiy jihatdan yuksalishida yoshlarning o'rni benihoya kattadir. Shuning uchun ham prezidentimiz bugungi kunda ta'lim, fan va adabiyot sohasida ko'plab o'zgarishlar va yangilanishlarni olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlikni targ'ib qilish masalalari muhokama qilingan edi. Yig'ilishda davlat rahbari aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalasiga to'xtalar ekan, "Har bir rahbar o'zining shaxsiy kutubxonasidan kitoblar sovg'a qilsa, bu yaxshi tashabbus bo'lib kitobxonlikni rivojlantirish bilan farzandlarimiz tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi",- deb ta'kidlagan edi.<sup>1</sup>

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Bulardan to'rtinchi tashabbus: yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ilmiy va ma'naviy salohiyatini oshirishni ta'minlaydi.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

<sup>2</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

Jamiyatimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq jarayonlarning murakkab tomoni shundaki, bugungi kunda boshimizdan kechirayotgan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lida uchraydigan juda ko'p muommalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan faqat o'z kuchimiz va salohiyatimizga tayanib hal etishga to'g'ri kelmoqda. Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil ishlarning amaliy natijasi o'laroq, adabiyot va san'at, madaniyat, matbuot sohasi mafkuraviy tazyiqdan butunlay xalos bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. Yuqorida sanab o'tilgan 5 ta tashabbus ham bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega. Har qanday ijod na'munasi, badiiy asar sinfiy bo'lishi va qandaydir g'oyaga, kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilishi kerak, degan qarashlar bugun o'tmishga aylandi. Erkin ijod uchun, milliy qadriyatlarimiz va boy ma'naviyatimizni, xalqimiz tarixini, uning bugungi sermazmun hayotini to'laqonli va haqqoniy aks ettirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda o'z hayotini ana shunday mas'uliyatli sohaga bag'ishlagan ko'plab iste'dod sohiblari yurtimizda yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, komil insonni tarbiyalash yo'lida munosib hissa qo'shib kelmoqda. Zero, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov : "O'zbek nomini, o'zbek ilm fani va madaniyatini bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanligini, dunyoga namoyish qilishda yurtimizda yetishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiylk na'munalarini ko'rsatganlar, ular ijodini o'rganish jasorat sanaladi"<sup>3</sup> deya ta'kidlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida"gi farmoyishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu farmoyishda jamiyat hayotidagi ezgu qadriyat va

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.Toshkent. Ma'naviyat.2008-yil.121-bet.

an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ong-u tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining oshirilishiga alohida e'tibor qaratilgandir. Qarorlar samarasini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz bo'ylab "Mening birinchi kitobim", "Eng yaxshi kitobxon", "Kitobxon oila" kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Buni mamlakatimizdagi ilm-fanga, adabiyotga qaratilayotgan yuksak e'tibor desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizning keyingi besh yillik taraqqiyot bosqichini belgilovchi asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947 sonli Farmoni 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"<sup>4</sup> ishlab chiqildi. "Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi yo'nalishda ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari o'z ifodasini topgan. Bu yo'nalishda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirishga, har tomonlama barkamol, yetuk inson, yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. 4.4 bo'limi "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" masalasiga qaratilganligi ham yurtboshimizning ta'lim va fan sohasiga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi. Bu jarayonda barcha ta'lim bosqichlarini jadal sur'atlarda rivojlantirish oliy maqsad qilib qo'yildi.

Har bir adabiyotning bosh xususiyati milliyligidir. Shuning uchun ham milliy adabiyot deymiz. Dunyoda esa minglab millatlar, elatlar bor. Birini ikkinchisi bilan adashtirmaysiz. Chunki biri ikkinchisidan nimasi bilandir farq qiladi. Mana shu "nimasi" bo'lmagan, o'zligi yo'q millat uzoq yashay olmaydi, boshqasiga singib ketadi.<sup>5</sup> Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati ko'z o'ngida

---

<sup>4</sup> 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: "Ma'naviyat",2017.

<sup>5</sup> Qosimov B.O`zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.; "Fan va texnologiya", 2008, 331-b.

taraqqiyot yo‘lidan dadil qadam tashlayotganligi bugungi voqelikning qadr – qimmatini belgilovchi mezondir. Bu mezon shuni ham taqozo etmoqdaki, ilmfan sohasida yaratilayotgan tadqiqotlar mavzuining dolzarbligi va yangiligi bilan jahon adabiyotshunosligi andozalariga mos bo‘lmoqda.

O‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, badiiy asar mazmunini to‘la tushuntirish va buning uchun yordam beradigan pedagogik texnologiyalardan samarali va o‘rinli foydalanish katta ahamiyatga ega. Badiiy asar mazmunini o‘quvchilarga yetkazib berishda qayta hikoyalashning ahamiyati va uni qo‘llash usullarini sinovdan o‘tkazish jarayonlarini to‘laroq ochib berish lozimdir. Buning uchun badiiy matn bilan ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kerak bo‘ladi. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi.<sup>6</sup>

Qayta hikoyalashning bugungi ta‘lim sohasidagi ahamiyati shundan iboratki, o‘quvchilar o‘z fikrini mustaqil bildirishlari, boshqalar fikrini tinglay olishlari va dars samaradorligini oshirishda o‘z hissalarini qo‘shishlariga o‘rgatish va badiiy asar mazmunini to‘g‘ri tahlil qila olish ko‘nikma va malakalarni hosil qilishlarida ko‘rinadi.

---

<sup>6</sup> Badiiy matnning lisoniy tahlili (ma‘ruza matni).Navoiy,2010, 3-b

## **I bob. Badiy asar mazmunini o‘quvchilar ongiga singdirishda qayta hikoyalashning zamonaviy ta’limdagi o‘rni**

Adabiyot oddiy so‘zga hayotbaxsh qudrat ato etib, insoniyatning eng nozik tuyg‘ularini harakatlantiradi, ko‘ngil atalmish sirli va mo‘jizakor dunyosini taftish qiladi; olam va odamning mohiyati, ular o‘zaro munosabatlarining sabab va oqibatlarini, yashash mezonlari bilan tanishtiradi. Badiiy adabiyot insoniyat hayotini charog‘on etishi, inson umriga nurafshonlik baxsh etib, ma’naviy olamini shakllantirishi va yuksaltirishi, porloq kelajak uchun munosib to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam berishi, kitobning insoniyat tomonidan yaratilgan eng buyuk kashfiyot ekanligi bois har qanday davr va zamonda kitob o‘qish, kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Bilish faoliyatini jonlantirish faqat bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yaxshilashgagina emas, balki shaxsning eng muhim sifati bo‘lgan faollik va mustaqillikning shakllanishiga ham yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.<sup>7</sup>

Ijtimoiy hayotdagi yangilanish va o‘zgarishlar adabiyotning o‘zida ham, uni o‘qitish sohasida ham yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Keyingi yillarda adabiyot fanini o‘qitish o‘zining yangi metodlarini topib bormoqda. Bugun axborotlar oqimi shiddat bilan kuchayib borayotgan bir paytda kitob o‘qishga, asar mohiyatini tushunishga, qahramonlar og‘rig‘i, quvonchi bilan yashashga, ma’naviy ozuqa olishga e’tibor susayib bormoqda. Shunday bo‘lsa-da, kitobxonlarga kitob inson ma’naviyatining ajralmas qismi ekani, inson ma’naviyatining shakllanishida adabiyotning roli kattaligini singdirish lozim.

Innovatsion jarayon turli yangiliklar, innovatsiyalarni yaratilishi, tarqalishi, tatbiq etilishi, tanlanishi, o‘zgartirilishi va ishlatilishidir. Innovatsiya natijasida

---

<sup>7</sup> Azizxo‘jayeva. N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: "Adabiyot jamg‘armasi", 2006, 34-b

amaldagi tizimda alohida elementlar o'zgartiriladi, innovatsiya natijasida amaliyot subyektlarining pozitsiyalari to'la yangilanadi, tizimdagi aloqalar va tizim isloh qilinadi. Alohida qayd etish lozimki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Bu borada taniqli olim N. Talizina "Amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. Zamonaviy innovatsion texnologiya, iloji boricha, o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga mavzu ustida bevosita o'zlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma'lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida tatbiq etishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunga sabab shuki, ko'p yillar an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar esa ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganib tahlil qilish hamda mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Maktab adabiy ta'limi jamiyat ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda eng ko'p ishtirok etadigan faoliyat turidir. O'quvchilarni adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, ajdodlardan qolgan ma'naviy me'rosni kelajak davomchilariga yetkazish, ularni asrab-avaylashni, o'qiladigan asarlarning o'ziga xos tarovatini tushunishni shakllantirib borish zarur. Shu o'rinda, taniqli metodist olim Q. Yo'ldoshevning: "Adabiyot o'qitishning vazifasi qanchalik aniq, o'quvchining yosh va ruhiy xususiyatlariga mos bo'lsa, maqsadga erishish imkoniyati ham shunchalik yuqori bo'ladi",- degan fikrini keltirish o'rinlidir.<sup>8</sup>

---

<sup>8</sup> Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 1996, 127-bet.



Demak, adabiy ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyani qo'llash ma'lum qolip asosida fikrlashni emas, balki umumiy yechimga xilma-xil ijodiy izlanishlar orqali kelishini taqozo etadi. Asosiy maqsadga erishish faqat tushuntirish va aniqlash jarayoni bilan chegaralanmaydi. Adabiyot darslari jarayonida o'quvchilarning ma'lum bir vaqt ichida o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirishi o'sha bilimlarni takrorlay olishi va amaliyotda qo'llashi bilan belgilanadi. Buning uchun o'qituvchi dars jarayonida qabul qilingan standart matnlarga ijodiy yondashishi lozim bo'ladi.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. «Innovatsion pedagogika» termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, VA. Slastenin, A I. Shcherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalami keng yoyish nuqtai nazardan yoritilgan. X.Bamet, Dj. Basset, D. Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem ishlarida innovatsion jarayonlami boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlami tashkil etish, innovatsiyaning «hayoti va faoliyati» uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar masalalari tahlil qilingan.<sup>9</sup>

Badiiy asarlar qaysi janrda bo'lmasin, eng avvalo, ular inson ruhiyatining turfa manzaralari, murakkab hayot in'ikosidir. Ulardagi badiiy timsollar ijodkor g'oyaviy-badiiy niyatining ifodasi, elchisi, hayotning yozuvchi his-tuyg'ulari bilan qayta sug'orilgan va ruhiy kechinmalari singdirilgan shaklidir. Turmushda har bir inson o'z qiyofasi, o'z dunyoqarashi hamda o'zgalardan farq qiluvchi va faqat o'zigagina xos shaxsiy fazilatlarga ega bo'lganidek, biz o'qigan badiiy kitoblardagi timsollar ham rang-barangdir. Adibning tuyg'ulari nechog'liq kuchli, hayajonli bo'lsa, u yaratgan timsollar ham shu qadar jozibali, sehrlovchi qudratga ega bo'ladi. Ularni o'qib, qahramonlarining hissiyotlarini, qalb tuyg'ularini

---

<sup>9</sup> Azizxo'jayeva. N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: "Adabiyot jamg'armasi", 2006, 51-b

o‘zimizga yuqtiramiz, ular singari iztirobga tushamiz, nimanidir yoqlaymiz yoki, aksincha, inkor qilamiz. Badiiy asar qahramonlarini o‘rganish jarayonida (asar matni o‘zlashtirilgandan so‘ng) o‘quvchilarga ularning o‘ziga ma’qul yoki nojoiz jihatlarini, yoki qiyofa-portret tasvirlarini qisqacha konspekt daftarlariga yozdirgan ma’qul. Bu ish o‘quvchilarga kelgusi darslarda yozilajak insholari, test topshiriqlarini bajarishlari uchun yordam beradi. Muhimi, tahlilda loqaydlik, erinchoqlik qilmaslik zarur. O‘quvchi asar mazmunidan to‘la-to‘kis xabardor bo‘lmasa, uni mustaqil ijodiy tahlil qilishi amrimahol. Hayot mantig‘i qayerda-yu, badiiy mantiq qayerdaligini idrok eta olmaydilar. Agar o‘qituvchi 45 daqiqalik ish faoliyatini unumli, to‘g‘ri va oqilona, tejamkorlik bilan uyushtira olsa, qahramonlar tahliliga ham, bahs -munozaraga ham, yakuniy xulosalarga ham imkon topa oladi. Vaqt bemalol bo‘lgan chog‘da, fakultativlarda o‘quvchi o‘z tengdosh-sinfdoxlari va ustozlari bilan ochiqchasiga, emin-erkin bahs-munozaraga kirisha oladi. Bunday paytda ancha ilgariroq o‘rganilgan bir necha asarning yetakchi timsollari tahlilida muammoli vaziyatlar muhitini yaratish mumkin. Asar qahramonlariga darddosh bo‘la turib, eng bebaho boyligimiz — istiqlol va o‘zbek xotin-qizlarining bugungi baxtiyor oilaviy turmushi, ertangi yorug‘ kunlarini o‘ylab, rahiyatimiz ham taskin topadi. Dorilomon shu kunlarga yetkazgani uchun yosh qalbimiz yashash-yaratish, sevib-sevilishdek bir-biridan shirin, masrur tuyg‘ularga oshufta bo‘ladi. Badiiy asar timsollarini keng qamrovli tahlil qilishga, mushohada yuritishga, shaxsiy fikrlarini asoslay olishga odatlana boradilar. Buning uchun qo‘shimcha badiiy va ilmiy adabiyotlardan foydalanishga intiladilar. Mustaqil tahlilga moyillik esa asarlardagi eng nozik va mayda holatlarni, kichik epizodlarni ham bexato ilg‘ab, eslab qolishlariga, kelgusida yosh munaqqid kabi u yoki bu kitob haqida o‘zgalarga shaxsiy mulohazalarini mahorat bilan ifodalab berishlariga omil bo‘ladi.

Muammoli tahlil usulidan badiiy asar g‘oyasi, obrazlari to‘g‘risida fikr yuritish, qiyoslash, nazariy ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida foydalanish

mumkin. Muammoli ta'lim natijasida o'quv materiallarining ta'lim oluvchi xotirasiga yaxshi joylashishi va uning mustaqil mushohada doirasi kengayishi darajasi birmuncha yuqori bo'lishi kuzatiladi. Va hattoki, inson hayotda shu kabi murakkab vaziyatlarga tushib qolganida, turmush chorrahalarida adashganida yo'l topib, chiqib ketishga o'rganadi, malakasi oshadi, obrazlar xatti-harakatidan axloqiy-tarbiyaviy xulosa chiqarishga odatlanadi. Chunki badiiy asar faqat adabiyot fanining obyektidir emas, u butun insoniyatning tarbiya quroli, boyligi hamdir. Keyinchalik adabiyot bilan fan sifatida shug'ullanmaydigan odam ham badiiy asar o'qishi, turli taqdirga hamnafas tutinishi mumkin. Chunki badiiy adabiyot ommaboplik xususiyatiga ega. Shuningdek, u insonshunoslik, pedagogik tarbiya asosi hamdir. Dars jarayonida tanlangan muammo hajmi, qamrov doirasi yoki, umuman, mohiyatidan qat'iy nazar mavzuning yoritilishiga xizmat qilmog'i kerak. Chunki muammoli vaziyat natijasida fikrlar chuvalashib, chigallashib, hattoki mavzudan chetga chiqish holatlari yuzaga kelishi mumkin. O'qituvchi jamoa fikrini to'g'ri tomonga yo'naltirib yuborish uchun ko'maklashishi, albatta, bunda o'z fikrini ta'kidlash yo'li bilan emas, balki savollarni chigallashtirib, o'zgartirib, masalaning yangi qirralarining ochilishiga yordam beruvchi qo'shimcha muammoli savollarni o'rta tashlash orqali erishishi mumkin. Bu, albatta, ta'lim beruvchidan kattagina mahorat, izlanuvchanlik va ijodiylikni talab qiladi. Zamonaviy innovatsion texnologiya, iloji boricha, o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarga mavzu ustida bevosita o'zlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma'lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumta'lim maktablarida badiiy asar o'rganilar ekan, uni ilmiy va didaktik tahlil etib, xulosalar chiqarishga uriniladi. Badiiy asar tahlilidan kerakli xulosalar chiqarish uchun ijodkorning tarjimai holi bilan tanish bo'lish talab etiladi. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adib qanday munosabatda bo'lganligidan xabardor bo'lish mumkin. Shuning uchun o'qituvchi

o'quvchilarga mavzu ustida bevosita o'zlari mustaqil faoliyat ko'rsatishlari, mantiqiy fikrlashlari va ma'lum xulosalar chiqarishi uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Badiiy adabiyot o'z holicha inson hayotiga bevosita kerak emasday bo'lib tuyulsa-da, amalda insonning odamiylik martabasiga yuksalishi uchun xizmat qiladigan ma'naviy sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki badiiy adabiyotda inson ruhiyati aks etadi. Binobarin, o'z aqlida ezgu ruhiy sifatlarni qaror toptirmoqchi bo'lgan millat ta'lim muassasalarida adabiyot o'qitishni imkon qadar samarali yo'sinda tashkil qilishga e'tibor qaratadi. Negaki, adabiyot yordamida bilvosita shakllantirilgan ma'naviy sifatlarni inson ruhiyatining ezgu bo'lishiga olib keladi. Ezgu ma'naviy fazilatlar esa, shaxs takomilining, binobarin, jamiyat taraqqiyotining omilidir. Ayniqsa, inson omilining salmog'i ortib, bir odamning qo'lidan ulkan yaxshiliklar ham, tengsiz yovuzliklar ham kelishi mumkinligi yoshlarga imkon qadar ko'proq ezgu sifatlarni singdirish kerakligini taqozo etadi. Binobarin, adabiyot o'qitish metodikasi fanining predmeti muhim ijtimoiy salmoq kasb etadi. Badiiy asar o'qishga doimiy ehtiyoj, adabiyotdan xabardorlik, o'qiganlarni tushunish va tahlil qila olish hamda bu xususida istasa og'zaki, istasa yozma shaklda ravon fikr bayon qila bilish millat ahli intellektual rivojidan dalolat bo'ladi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishni samarali yo'lga qo'yish o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan didaktik tadbirgina bo'lmay, yoshlarda ezgu ma'naviy sifatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan umumilliy ahamiyatga ega yumushdir.

Badiiy asar mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda qayta hikoyalashning o'rni ahamiyatlidir. Qayta hikoyalashni zamonaviy texnologiya va usullar asosida maktablarda o'qitishning joriy qilinishi va undan dars jarayonida o'rini va me'yorida foydalanish ham dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyot darslari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishda beqiyos imkoniyatlarga ega. Bu yerda adabiy o'qish, ifodali o'qish, matnni izohlash,

yod olish, qayta hikoyalash, matnning rejasini tuzish, asarning ajratib olingan alohida bir qismi, nomlangan asarlar (xususan klassik adabiyotimizdagi lirik asarlar)ga sarlavha topish, asar muallifi yoki qahramonlarga maktublar yozish, adabiy asar yoki adabiy-tanqidiy maqolalarga taqriz yozish singari bir-biriga o'xshamaydigan ish turlari mavjud.<sup>10</sup>

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil usullardan foydalaniladi. Bolalar asardagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o'qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida asarning chizmasi tuziladi. O'qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi. Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi. Adabiyot darslarida o'quvchilar nutqining o'sish darajasi to'g'ri uyushtirilgan usul qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. O'quvchilar uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan murakkabroqdir. O'quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o'zaro bog'liqligini

---

<sup>10</sup> To'xliyev.B. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: "Yangi asr avlodi", 2006, 83-b.

yoritishga yoʻnaltirilishi lozim. Oʻquvchi oʻqilgan asar mazmunini oʻqituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar oʻzaro bogʻlanadi (sintezlanadi), bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Oʻquvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, baʼzan notoʻgʻri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar.<sup>11</sup> Shuning uchun ham oʻqituvchi savolni juda oʻylab tuzishi, u bolani fikrlashga, oʻylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bogʻlanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni oʻzaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan boʻlishi lozim. Oʻquvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq koʻz oldiga keltira olsa, u asarning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. Oʻqilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalashning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda oʻquvchi asarni yoki asardan parchani tarkibiy qismlarga boʻladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga oʻtiladi, yaʼni bolalar asar qismlariga sarlavha topadilar. Oʻquvchilar oʻqituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida oʻqilgan asarning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida oʻylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, oʻquvchilar topgan sarlavhani jamoaviy muhokama qilish, reja tuzish jarayonining oʻzi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda oʻz mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni oʻqish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja doskaga yozilsa, asar mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchilikda oʻzlashtirishdir.

---

<sup>11</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

Reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoliga javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning mustaqil shaklidir.<sup>12</sup>

O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'ygan qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aylib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga II sinfdan boshlab o'rgatiladi.<sup>13</sup> Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir.

Tanlab hikoyalashda o'quvchi:

- o'qilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib so'zlab beradi;
- hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;
- hikoya mazmunini faqat bir sujet yo'nalishida so'zlab beradi.

O'quvchilarda tanlab qayta hikoyalashda keng qo'llaniladigan metodik usullar yordam beradi:

- hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash;
- hikoyadagi bir voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash;

---

<sup>12</sup>www.google.uz

<sup>13</sup> Sattorova.K.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirish texnologiyalari.Guliston,2015, 17-b

- tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish.

O'quvchi tanlab hikoya qilishga tayyorlanganda o'qilgan matnni tahlil qiladi. Sunday tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qilgan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi.

Asarni o'qish bilan bog'liq holda o'tkaziladigan ijodiy ishlar ham o'quvchilar nutqini, tafakkurini o'stiradi. Bular:

- ijodiy qayta hikoyalash;
- inssenirovka qilish;
- o'qilgan asarga rasm chizish;
- hikoyani davom ettirish.

Ijodiy qayta hikoyalashda o'qilgan asarning sharoiti yoki shakli o'zgartirib hikoya qilinadi. Bunda asarni yangi epizodlar bilan to'ldirib hikoya qilish ham mumkin. Inssenirovka yoki sahnalashtirishda o'quvchilar o'qilgan asarni sahnabop qilib o'zgartiradilar. Buning uchun ular asarga ssenariy haqida, kiyim-kechaklari, qatnashuvchilarning imo-ishorasi haqida o'ylaydilar, monologik nutqni dialogik nutqqa aylantiradilar (bu tilni o'rganish nuqtai nazaridan eng muhim ish hisoblanadi). O'qilgan asarga rasm chizishda o'quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan o'qilgan asarning mazmuniga mos rasm tanlaydi yoki o'zi rasm chizadi. Agar o'quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, o'zi chizmoqchi bo'lgan rasmni og'zaki tasvirlab beradi, ya'ni so'z bilan chizadi. O'qilgan asarni davom ettirish usuli maktab tajribasida keng qo'llaniladi. Bu usul asarning mazmuni uni davom ettirishga imkon beradigan asarlarda qo'llaniladi.

Badiiy tahlil vositasida o'quvchi asarga chuqurroq sho'ng'ib, uning mohiyatini tayin etgan poetik unsurlarni, badiiy-estetik tafakkurni, so'z sehri va jozibasini teran ilg'aydi va haqiqiy kitobxon darajasiga erishadi. Zero, asarni uqish – uni o'qishdan ko'ra muhimroq. Buni professor A.Rasulov quyidagicha izohlaydi: “O'qish, uqish jarayonidagi ijodda aql-hush yetakchilik qiladi. Aniqrog'i, kitobxon bus-butun holda qabul qiluvchi, o'zlashtiruvchiga aylanadi. Asarni o'qish, aslida, o'zi uchun ijro



etishdir. Kitobxon voqealarga aralashadi, qahramonlarni jonlantiradi, ularning gap soʻzlarini eshitadi, ruhiy holatlarini yurakdan his etadi”.<sup>14</sup>

Qayta hikoyalashda naʼmunadagi izchillik, bogʻliqlik saqlanishi, asosiy faktlar berilishi, ayniqsa, ilmiy matnni qayta hikoyalashda barcha muhim oʻrinlar toʻliq bayon qilinishi zarur. Vaqti-vaqti bilan ilgari eshitilgan, oʻqituvchi oʻqib bergan yoki radio, televizordan yozib olingan matnni qayta hikoyalatish, oʻquvchi bir marta ovoz bilan yoki ichda oʻqigandan soʻng qayta hikoyalatishdan foydalanishni tajribada qoʻllab turish ham mumkin. Bu ishni turli xil uslublarda olib borish imkoniyatini yaratadi va uni jonlantiradi. Koʻpincha qayta hikoyalashga maxsus tayyorgarlik koʻriladi, bunda quyidagilarga rioya qilinadi:

1. Qayta hikoyalash va uning turi haqida oʻquvchilar ogohlantiriladi: toʻliq, detallari bilan, tilning tasviriy vositalaridan foydalanib matnga yaqin qayta hikoyalash; tanlab (masalan, bir qatnashuvchi shaxsga tegishli oʻrinlarinigina) qayta hikoyalash, qisqartib qayta hikoyalash.
2. Suhbat, matn mazmunini tahlil qilish, matn tili ustidagi xilma-xil ishlar, qayta hikoyalashda zarur boʻlgan soʻz, nutq birliklari va gaplarni ajratish va aniqlash.
3. Qayta hikoyalashda ifodalilikni berish uchun ifodali oʻqishni puxtalash.
4. Asarni mantiqiy va kompozitsion qismlarga boʻlish, har bir qismga sarlavha topish, matnni qayta hikoyalashga moʻljallangan rejani tuzish.
5. Matn qismlarini qayta hikoyalash, uning kamchiliklarini tahlil qilish.
6. Oʻquvchilarning hayotiga bogʻlash (oʻrni bilan), yaʼni oʻqilgan matn mazmuniga bogʻliq holda oʻquvchilarning shaxsiy tajribasida uchraydigan va uchragan analogik holatga eʼtibor berish. Boshqacha qilib aytganda, har bir darsda maʼlum taʼlim maqsadi asosida qayta hikoyalashga muntazam oʻrgatib borish zarur.<sup>15</sup>

---

<sup>14</sup>Azimova.F.Badiiy asar tahlili va mutolaa madaniyati. Ziyo.uz 05.05.2019

<sup>15</sup> www.google.uz

To'liq yoki matnga yaqinlashtirib qayta hikoyalash va bayon. Qayta hikoya qilish va bayonning bu turi boshqa turlariga nisbatan boshlang'ich sinflarda ko'p o'tkaziladi, chunki bu o'qilgan matnni butun detallari va bog'lanishlari bilan bolalar yodida mustahkamlash, namunaviy matnning mazmuni va tilini o'zlashtirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Bolalar tez yodlab oladigan kichik matnni, she'riy misralarni buzmaslik uchun she'rni, ayniqsa, butun bir poetik obrazni tasvirlovchi lirik she'rni hikoya qilish tavsiya etilmaydi. To'liq hikoya qilish uchun dastlab aniq sujetli, hikoya uslubida yozilgan matn tanlanadi, keyin bolalar hikoyaga tasviriy (tabiat tas-viri, kishilar va boshqa predmetlarning tashqi ko'rinishi tasviri) va muhokama elementlarini kiritishni o'rganadilar.

Hikoya qilishga o'rgatish vaqtida o'quvchilarni „Bu fikr yozuvchi asarida qanday ifodalangan?“ savoliga javob berishga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Bola hikoya qilishga qiziqsa, agar hikoyani o'qituvchigina emas, sinfdagi barcha bolalar eshitsa, bunday hikoyalash jonli va qiziqarli bo'ladi. Hikoya qilishga o'quvchilarning qo'shimchasi, ma'lum qismini qayta hikoya qildirish, hikoyachini rag'batlantirish sinfda ijodiy muhitni vujudga keltiradi. Matnga yaqin hikoya qilishda savollar matn mazmunigagina qaratilmasligi, o'quvchilar mustaqillik darajasini pasaytiradigan matn mazmuni yuzasidan beriladigan savollarni asla-sekin kamaytira borish, bolalarni kengroq, umumiyroq savollarga javob berishga o'rgata borish zarur. To'liq hikoya qiliishda hikoyani qanday boshlashni bilmaslik, ya'ni boshlanishi berilgan matn mazmunini davom ettira olmaslik, to'liq bayon qila olmaslik yoki noto'g'ri bayon qilish, bayon tilining kambag'alligi kabi kamchiliklar uchraydi.

Tanlab qayta hikoyalashning quyidagicha turlari mavjud:

1. O'qilgan matn qismini yoki bir voqeani unga chizilgan rasm asosida hikoya qilish.
2. O'qituvchi topshirig'i yoki berilgan savol asosida alohida lavhani hikoya qilish.

3. Berilgan mavzu bo'yicha matnning turli qismlaridan olingan parchalarni hikoya qilish.<sup>16</sup>

Bu ish tanlab hikoya qilishning murakkabroq turi hisoblanadi. Tanlab hikoya qilish uchun o'quvchi matnni boshidan oxirigacha qayta o'qib chiqishga yoki yodga tushirishga, kerakli materialni yig'ishga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchilarga matnni ichda o'qish topshiriladi yoki ovoz bilan tanlab o'qish topshirig'i beriladi. Bunday tanlab hikoya qilish ba'zan yozma bayon sifatida ham o'tkaziladi.

Qisqartirib qayta hikoyalash va bayon. Matn mazmunini qisqartirib qayta hikoyalash va bayon yozish murakkab mantiqiy usullardan foydalanishni talab qiladi, shuning uchun ham u to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayonga nisbatan qiyin. Bunda matndan ikkinchi darajali o'rinlarni tushirib qoldirib, asosiy, muhim o'rinlar tanlab olinib, hikoya qilinadi. Buning uchun o'quvchining o'zi matnning asosiy mazmunini aniqlashi, bog'lanishli, izchil qayta hikoyalashi, uning hikoyasi matnni qisqartirish tarzida bo'lmasligi, o'zlashtirilgan matnning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan bera olishi zarur. Qisqartirib qayta hikoyalashga o'rgatish uchun bayon mazmunini qisqartirib tuzish oson bo'lgan hikoya tarzidagi matn tanlash tavsiya etiladi.

Badiiy matn bilan tanishganda undagi estetik jozibani his qila oladigan, ko'ngil qatlamlarida turli hayajonlar, insoniy kechinmalar harakatga keladigan, ruhiy kayfiyati o'zgaradigan, hayolot dunyosi tebranadigan kitobxongina o'z shaxsiyatidagi kemptikliklarni anglab yetadi, o'zligini taftish qilish orqali tafakkurini tarbiyalay oladi, ma'naviy olamini yuksaltiradi, komillik bosqichlarini egallashga intiladi. Zotan, badiiy adabiyotning har bir ta'lim bosqichida uzviylik va izchillik asosida o'qitib borilishi, adabiy ta'limning muayyan sinf, guruh yoki yo'nalish, oliy ta'limda esa muayyan soha tanlamasligi ham ayni shu xususiyatlar bilan belgilanadi. Muhimi,

---

<sup>16</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz)

adabiy ta'lim jarayonida badiiy tahlil malakasini puxta egallagan o'quvchi-talaba har qanday badiiy asardan estetik zavq tuyadi, uning mohiyatini teran ilg'aydi va o'z vaqtini qanday asarlarni o'qib-o'zlashtirishga sarflashni juda yaxshi bilib oladi.<sup>17</sup>

O'quvchilar matnni to'liq qayta hikoya qilishga o'rganganlaridan so'nggina matnni qisqartib qayta hikoyalashga o'rgatiladi. Qisqartirib qayta hikoyalash, o'z navbatida, matn rejasini tuzish, ya'ni matn qismlariga sarlavha topish bilan bog'liq, asarning asosiy mazmunini qisqa ifodalash esa matn ustidagi analitik-sintetik ishlarning natijasidir. Ba'zan o'quvchilar asarning asosiy mazmunini (g'oyasini) qisqa, bir gap bilan ifodalashga o'rgatilgach, matn rejasini tuzishga, keyin matnni qisqartib qayta hikoyalashga, undan so'ng matn mazmunini to'liq qayta hikoya qilishga o'rgatilishi ham mumkin.

Badiiy asarga mo'jizaviy bir butunlik tarzida yondashilmasa, uning sir-u jozibasi yo'qqa chiqib, ta'sir qudratidan mahrum bo'ladi. O'rganilayotgan asarning barcha jihatiga birvarakayiga sinchkov yondasha bilish va uning qismlarida buzilmas butunlikning jozibasi borligini kashf etish tahlil muvaffaqiyatini ta'minlaydigan omildir.<sup>18</sup>

Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go'zallik kitobxonning ma'naviyatigagina emas, tafakkuriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to'g'ri yo'nalish beradi. Badiiy adabiyotni faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o'quvchilarni yashashga o'rgatadigan amaliy vosita tarzidagina taqdim qilish zararlidir. Chunki badiiy adabiyot savollarga javob bermaydi, balki kitobxon oldiga savollar qo'yadi. Shuningdek, u yoki bu tarzda yashash kerak deb tavsiya ham bermaydi, yo'l ko'rsatmaydi. Chunki, inson

---

<sup>17</sup> Azimova.F.Badiiy asar tahlili va mutolaa madaniyati. Ziyo.uz . 06.05.2019

<sup>18</sup>Yo'ldoshev.Q.Mohiyatni anglash yo'li. "Sharq yulduzi" jurnali sayti.

tabiatining, hayotiy vaziyatlarning sanoqsizligi, hisobsiz muqobillarga egaligi bu xil tavsiyalarni darrov samarasiz qiladi.<sup>19</sup>

Shuni aytish lozimki, asarni qayta hikoyalash o‘quvchilarning matn bilan ishlashi, uning tub mohiyatini anglab yetishi va asar mazmunidan olgan fikr va xulosalarini oson yoritib bera olishlarini ta’minlaydi.

---

<sup>19</sup>Qobilov.U.Badiiy tahlil asoslari(Ma’ruza matni).Samarqand.2014,4-b

## **II BOB. Asar mazmunini qayta hikoyalashda qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari (8-sinf darsligi asosida)**

“O‘rta asr pedagogi gapirib beradi,  
Yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi.  
Ajoyib pedagog ko‘rsatib beradi,  
Mohir o‘qituvchi berilib tushuntiradi”  
(Artur Vard)

Adabiyot darslarida asarni o‘rganish bilan bog‘liq jihatlarni, asosan, badiiy tahlil shaklida tashkillashtirish lozim, natijada o‘quvchining badiiy adabiyotga qiziqishi va muhabbati kundalik ma’naviy ehtiyojga aylanadi, chunki, nafosatga intilgan qalbdan hamisha ezgu niyatlar yashaydi, yovuzliklar ortga chekinadi. Ana shunda bugungi adabiy ta’limdan ko‘zlanayotgan yuksak ma’naviyatli barkamol shaxslar safi ham kengayib boradi. Ko‘ramizki, bu boradagi asosiy vazifa adabiyot o‘qituvchilari zimmasida. Shu bois, avvalo, har bir adabiyot o‘qituvchisining o‘zida kitobxonlik madaniyati shakllangan bo‘lishi, badiiy adabiyot mohiyatini teran ilg‘ashi, badiiy tahlilning nazariy va metodik asoslarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. “Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fanniy asoslarda o‘rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lgan holda o‘quvchilar bilan yuzma-yuz bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi”- deya uqtiradi Q.Yo‘ldoshev. Zero, adabiyotning butun borlig‘i, badiiy asarning ma’naviy-estetik mohiyati tahlil va talqin jarayonidagina to‘la namoyon bo‘ladi.<sup>20</sup>

---

<sup>20</sup> Azimova.F.Badiiy asar tahlili va mutolaa madaniyati. Ziyo.uz 10.05.2019

Adabiyotni, adabiy asarni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad mukammal tahlil vositasidagina o'zining oliy yechimini topa oladi. Badiiy tahlil tamoyillariga tayanib ish ko'rgan pedagog dars jarayonida badiiy matn mavzusi va mazmunini so'zlab berish, undan "ijtimoiy nasihat" ufurib turgan xulosa chiqarish bilangina cheklanib qolmasdan, o'z o'quvchilari bilan yuzma-yuz muloqotda bo'ladi, ularni adabiy-estetik tahlilga to'g'ri yo'naltira oladi. O'quvchilar badiiy tahlilsiz adabiyotning noyob durdonalarini, sara asarlarni shunchaki bilishlari, sanab o'tishlari mumkin. Ammo bu o'lmas asarlarning barhayotligini tayin etuvchi badiiy qimmatni, asl mohiyatni tajribali o'qituvchi amalga oshirgan tahlil va talqin vositasidagina teran idrok qilish imkoniyatiga erishadilar. Ana shundagina ular Navoiy dahosining buyukligi, Bobur shaxsining dilbarligi, Mashrab ruhiyatining sarkashligi, Cho'lpon shaxsiyati to'kisligi, Qodiriy tafakkurining qudrati va jozibasini ruhan va qalban his qiladilar, bu buyuk so'z san'atkorlarini abadiyatga daxldor badiiy-estetik latofatni chuqur ilg'aydilar, umuman olganda, adabiyot va badiiy asar mohiyatini anglab yetadilar. O'z navbatida esa yuksak badiiy didga, barkamol ma'naviyatga ega bo'ladilar. Demak, adabiy ta'lim jarayonida, badiiy asarni o'qib-o'zlashtirishda, badiiyatga daxldor nazariy ma'lumot va tushunchalarni shakllantirishda, shu asnoda ma'naviy barkamol shaxslarni tarbiyalashda, o'quvchilar qalbida badiiyatga, nafosatga, ezgulikka muhabbat uyg'otishda, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda ham badiiy tahlil birlamchi vazifa bajaradi.<sup>21</sup>

Badiiy tahlil jarayonida o'quvchilarga qayta hikoyalash usulining qo'llanilishi ham asar mazmunini to'laroq anglab olishlariga ko'mak beradi. 8-9-sinf o'quvchilarida analitik fikrlash kuchliroq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'zlariga tashqaridan qarashga urinishadi. Binobarin, bu sinflardagi o'quvchilarga ruhiy tug'yonlar, nozik hissiyotlar aks etgan asarlarni tavsiya etish mumkin. Ayni

---

<sup>21</sup> Azimova.F.Badiiy asar tahlili va mutolaa madaniyati. Ziyo.uz 10.05.2019

vaqtda, o‘spirinlar olamni tizimli tushunishga, har bir hayotiy hodisaning boshi va oxiri borligi, ularni sabab-oqibat munosabatlari doirasida anglash lozimligini bilishadi. Shuning uchun ham bu yoshdagi o‘quvchilarga o‘rgatilishi lozim bo‘lgan badiiy asarlar xronologik tarzda taqdim etiladi. Adabiy asar matnini o‘rganish usullari tushunchasi ta‘lim usullari tushunchasiga nisbatan birmuncha chegaralangan bo‘ladi.

Adabiy asar matnini o‘rganish usullari tushunchasi ta‘lim usullari tushunchasiga nisbatan birmuncha chegaralangan bo‘ladi. Masalan, badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi bo‘yicha qayta hikoyalash asarni o‘rganishda eng qiziqarli ishlardan hisoblanadi. Bu usul yozuvchi tarjimai holini o‘rganishda ham, adabiy matnni tahlil qilishda ham, obzor mavzularni o‘tishda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ham qo‘llanadi. Maktabda badiiy asarni o‘rganishda o‘quvchilarning badiiy asarni his etishi va unga bo‘lgan munosabati asar muallifi tutgan yo‘lga uyg‘unlashtirilishi lozim. O‘qituvchi maktabda badiiy asarni o‘zlashtirib olish jarayonini yaratadi.

Bunda o‘quvchilarning bilimni qanday o‘zlashtirganliklarini bilish bilan birga, ularga badiiy asarni anglab olish yo‘llarini topa bilish, adabiy matnni mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivoj toptirishga ham alohida e‘tibor beriladi. O‘qituvchi maktabda o‘quvchilarni asarni o‘rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g‘oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko‘nikmalarini o‘stirishga, egallagan bilimlarini aql–zakovat, his–hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim.



8-sinf Adabiyot darsligida Said Ahmad hayoti va ijodi hamda uning “Ufq” trelogiyasidan “Qochoq” parchasi keltirilgan.<sup>22</sup> Ushbu romanda xalqimiz hayotining kichik, biroq mazmun-mohiyati jihatdan juda dolzarb davri aks ettirilgan. Chunki xalqimiz urush arafasidagi, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda mislsiz fidoyilik, qahramonliklar ko‘rsatdi. Uzunligi 270 kmdan Katta Farg‘ona kanalining qo‘l kuchi bilan 45 kunda qazib bitkazilishi misli ko‘rilmagan jasorat, har qanday jahon rekordini ortda qoldirar edi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, kanal qazishda 160 ming kishi qatnashgan, kanal trassasida 17,8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1,7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan. Urush yillarida xalqimizning front va front ortidagi og‘ir mehnati, urushdan keyingi tiklanish davridagi chekkan zahmatlarining har bir kuni jasorat edi. Bu ulkan ishlarning ortida qo‘li qadoq jonli odamlar, ularning murakkabliklar to‘la suronli taqdiri, orzu-armonlari bor edi. Said Ahmad xuddi shu fidoyi insonlar hayotini, kechinmalarini qalamga olgan, ular haqida bir emas uchta jozibali, lekin bo‘yoqlarga boy, hayajonli kitob bitgan. Ularni jamlab, «Ufq» deb nomlagan. Darhaqiqat, roman uch katta davrni o‘z ichiga olgani uchun uni roman trilogiya deb ataymiz. Asarning dastlabki kitobi «Qirq besh kun», ikkinchi kitobi «Hijron kunlarida», uchinchi kitobi esa «Ufq bo‘sag‘asida» deb nomlangan. «Qochoq» deb shartli nomlangan parcha romanning «Hijron kunlarida» deb ataluvchi ikkinchi kitobidan olingan. E’tibor bergan bo‘lsangiz, ushbu parcha juda og‘ir o‘qiladi, aniqrog‘i, uni o‘qish emas, his qilish og‘ir. Urush qahramoni Ikromjon Usmonov frontdan bir oyog‘idan ajrab, qaytib keladi, ortidan unga berib ulgurilmagan ordeni ham tantanali topshiriladi. Bundan ruhlangan Ikromjon va uning rafiqasi Jannat xola barcha bilan barobar mehnat qiladilar. Biroq ular hayotida falokat yuz beradi - ularning yer-u ko‘kka ishonmay o‘stirgan yolg‘iz

---

<sup>22</sup>Sultonmurod Olim va b. Adabiyot (8-sinflar uchun darslik 1-qism).-T.: “G‘ofur G‘ulom”, 2017, 72-b

o'g'illari Tursunboy urushga ketayotib qochadi, ularning yuzini yerga qaratadi.<sup>23</sup> Eng yomoni, Tursunboy qochib kelib, ular o'zlashtirayotgan to'qayzor ichkarisiga joylashib olgan. Bu sirni onasi Jannat xolagina biladi. U ikki o't orasida. Bir tomondan, o'g'lining Vatanga xiyonati ich-ichini o'rtasa, ikkinchi tomondan, yolg'iz farzandiga joni achiydi. Qochoq o'g'lini boqish, uni kishilar ko'zidan yashirish bilan ovora bo'lib, tinkasi qurigan mushtipar ona kasallanib qolib vafot etadi. Ikromjon o'g'lining isnodiga chiday olmay yurganda, to'qayda Tursunboyini uchratadi. Ota va bola o'rtasida jiddiy to'qnashuv bo'lib o'tadi. Ikromjon o'g'lini el yurt oldida uzr so'ratmoqchi, diliga insof solmoqchi bo'ladi. Biroq nobakor o'g'il ko'nmaydi, ota qo'lidan qochib ketadi. Qochoq o'g'il Tursunboy «...ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tadi». Asarda Tursunboy qilmishi qoralanadi, hatto otasi ham xiyonatkor o'g'ilni mahv etishga tayyor. Avvalo, ota-onadan ham ayb o'tgan: ular yolg'iz o'g'illarini erka, tantiq qilib o'stirganlar. Bugun erka farzand ularni el orasida sharmisor qilyapti. Biroq bu ayblovlar zamirida urushni qoralash, bu qirg'inbarotni o'ylab chiqarganlarni la'natlash yotibdi. Urush ota-onalarni farzand dog'ida kuydirdi, bolalarni yetim qildi, mamlakatni xarobaga aylantirdi. Barcha baxtsizliklarning sababi - ana shu urush. So'z garchi Tursunboy taqdiri haqida ketayotgan bo'lsa-da, asarda u yolg'iz personaj hisoblanmaydi. Yozuvchi «Ufq» romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayotini Ikromjon, Jannat xola, To'lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon kabi qator qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlaydi.<sup>24</sup>

“Qochoq” parchasining mazmunini o'quvchilar ongiga sigdirishda qayta hikoyalashni turli pedagogik texnologiyalar orqali qo'llash mumkin. Masalan:

---

<sup>23</sup> Sultonmurod Olim va b. Adabiyot (8-sinflar uchun darslik 1-qism).-T.: “G'ofur G'ulom”, 2017,93-b

<sup>24</sup>Sultonmurod Olim va b. Adabiyot (8-sinflar uchun darslik 1-qism).-T.: “G'ofur G'ulom”, 2017, 93-b


Klasterlarga bo‘lish. Bu pedagogik strategiya bo‘lib, o‘quvchilarning u yoki bu mavzu bo‘yicha erkin va bemaolol o‘ylashga yordam beradi. U faqat g‘oyalar orasidagi bog‘lanishlarni fikrlashni ta‘minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan zid bog‘lanadi. Klasterlarga bo‘lishdan axborotlarni chorlash bosqichida ham, fikrlash bosqichida ham foydalaniladi. U muayyan mavzu sinchiklab o‘rganilguncha fikrlash faoliyatini ta‘minlashda foydalanilishi mumkin. Klasterlarga bo‘lish o‘quvchilarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlari yoki ulaming grafik ifodalari ko‘rinishlarini ta‘minlovchi sifatida ham, o‘tilganlarni yakunlash vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu o‘z bilimlariga, muayyan mavzu to‘g‘risida tasavvuriga va uni tushunishga yo‘l ochadigan nazardagi strategiyadir.

Klasterlarga bo‘lish quyidagi usullarda amalga oshiriladi:

1. Hushingizga kelgan barcha fikrlarni yozib olish. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki yozib olavering. 2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham parvo qilmang. 3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to‘xtamang. Miyangizga fikr kelishi to‘xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog‘ozda nimalarnidir chizib o‘tiring. 4. Imkoni boricha, bog‘lanishi mumkin bo‘lgan g‘oyalarni tizib chiqing. G‘oyalarning oqimi sifati va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo‘ymang. Klasterlarga bo‘lish bu juda moslashuvchan strategiyadir. Uni individual tarzda ham guruhda ham qo‘llash mumkin. Guruh faoliyatida u guruh g‘oyalarining tirgovichi sifatida xizmat qiladi. Bu esa o‘quvchilarni har bir amalda bo‘lgan bog‘lanishlarga, aloqalariga yaqinlashtiradi.<sup>25</sup> Bu texnologiyani bajarishdan oldin, barcha o‘quvchilar matn bilan tanish bo‘lishlari kerak. Klasterga birinchidan asar qahramonlari joylashtiriladi va shu qahramon qatnashgan o‘quvchiga yoqqan qismlar qayta hikoyalash asosida so‘zlab berishadi.

---

<sup>25</sup>Azizxo‘jayeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:”Adabiyot jamg‘armasi”,2006, 116-b



Sinkveyn. Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosidagi o'ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi.

Sinkveyn so'zi fransuzcha so'z bo'lib, "besh" degan ma'noni bildiradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir.

Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).
2. Ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).
3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tavsif etiladi.
4. To'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi 4 so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi.
5. Beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonimdir.<sup>26</sup>

Ushbu texnologiyadan foydalanishdan oldin ham parchani barcha o'quvchilar to'liq o'qib chiqqan bo'lishi kerak. "Qochoq" parchasining barcha jihatlarini umumlashtirgan holda asar mazmuni ochib beruvchi sinkveyn tuzishlari kerak bo'ladi. Masalan:

1. Xiyonat
2. Erka, qo'rqoq

---

<sup>26</sup> Azizxo'jayeva.N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: "Adabiyot jamg'armasi", 2006, 116-b

3. O‘z manfaatini o‘ylovchi, jonini yaxshi ko‘ruvchi, qiyinchilikka bardosh bera olmaydigan
4. Ota- ona mehri – hayot va halokat oralig‘idagi ko‘prik
5. Sotqinlik

“FSMU- texnologiyasi”- munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminari yakunida (o‘quvchilarning o‘quv-seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholash va bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi. “Qochoqning fojeasiga kim yoki nima aybdor”. Ushbu gapning mazmunini asar asosida tushuntirishda “FSMU-texnologiyasi”ning quyidagi ketma-ketlikdagi jarayonlarida ifodalash mumkin.


F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Bu texnologiyalardan tashqari “Nima uchun” sxemasi asosida matnni qayta hikoyalab, mustahkamlash va o‘quvchilarning fikrini bilishga yordam beradi.




Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o`zlarining chizmalarini to`ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar

Ish natijalarining taqdimoti

### “Nima uchun?” chizmasini tuzish qoidalari

1. Aylana yoki to`rtburchak shakllardan foydalanishni o`zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko`rinishini – mulohazalar zanjirini to`g`ri chiziqlimi, to`g`ri chiziqli emasligini o`zingiz tanlaysiz.
3. Yo`nalish ko`rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo`lgan yo`nalishingizni belgilaydi



Ushbu usulda o`quvchilar bir-birlari bilan munozarali savol-javoblarni va fikrlarni aytishlari mumkin bo`ladi.

Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning taʼkidlab oʻtadigan individual pozitsiyasidagi erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Besh daqiqali esse – oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida oʻquv mashgʻuloti oxirida 5 daqiqa oraligʻida olib boriladi.

Oʻqituvchi taklif etishi mumkin:

- «Men bu ... haqida nimani oʻylayman» yoki «Nima uchun, mening fikrimga koʻra ...» savollariga javob bering;
- oʻquv mashgʻulotida berilgan oʻquvchilar uchun yangi sanalgan gʻoyani tavsiflash va sharhlab berish;
- olingan bilim, koʻnikmalar qayerda amaliyotda qoʻllanilishini tavsiflash.

Ushbu koʻrinishdagi esse baholanmasligi ham mumkin. Ammo, oʻqituvchi juftliklarga ajralish, ishlar bilan oʻzaro almashish va yozilganlarni muhokama qilish taklifini berishi mumkin. Ushbu holda oʻqituvchi 2-3 ta essenini tanlab tekshirishi mumkin, ularni ovozini chiqargan holda sharhlashi, oʻquvchilar bilan muhokama qilishi va xulosa qilishi mumkin.

Asoslangan esse. Asoslangan esse - qoʻyilgan savolga asosli javob keltirilgan yozma ishdir. Muallif maʼlum bir pozitsiyani egallaydi va uni himoya qiladi, bunda oʻzining pozitsiyasini qoʻllab-quvvatlash uchun bir qancha asoslangan isbotlarni keltiradi. Maqsad – muallif lozim topadigan qarashlarni boshqalarning ham qabul qilishiga ishonitirish.<sup>27</sup>

Besh daqiqali esse usulidan foydalanishda oʻquvchilar parchani qayta hikoyalashning yozma shaklini bajarishlari mumkin boʻladi. Bunda oʻquvchilar

---

<sup>27</sup> [www.google.uz](http://www.google.uz).



asardan qismni o‘zlari chiqargan xulosalar, mulohazalar va taassurotlari asosida yozma bayon qiladilar. O‘zlari uchun yoqqan yoki salbiyroq qahramonga maktub shaklida esseni yozishlari mumkin. Esse usulida o‘quvchilar o‘g‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishlari mumkin.

“Blits” texnologiyasi pedagogikada tezkor, bir zumlik ma’nosida ishlatiladi. Unda savolning qisqaligi va javobning qisqaligi muhim o‘rin egallaydi. Bu texnologiyada o‘quvchilarga o‘rganilgan butun mavzu va uning ma’lum qismining asosiy tushunchalari va tayanch iboralari bo‘yicha tuzilgan savollarga javob (og‘zaki, yozma, jadval, diagramma) ko‘rinishida taklif etiladi. Texnologiya o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, kerakli ma’lumotlarni tanlab olishni o‘rgatishga asoslangan. Unda o‘quvchi o‘z fikrini boshqalarga o‘tkaza oladi. Chunki texnologiya shunga sharoit yaratadi. Asardan quyidagi qisqa savollarni “Blits” texnologiyasi shaklida berish mumkin.



URUSH-



IKROMJON VA JANNAT XOLA -



QOCHOQNING HALOKATI -



NIZOMJON OBRAZI -

## Xulosa

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. Hozirgi kunda eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir. Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim-ta'rbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi. Adabiyot fanini maktabda o'qitishdan maqsad - o'quvchilarni ravon nutqli, ajdodlarimizning boy ijodiy merosini mukammal egallagan, sog'lom fikrli qilib tarbiyalash. Bu maqsadga erishish vositalaridan biri- amalda joriy etilayotgan pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishdir. Adabiyot fanida pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars o'tish, bu texnologiyalarni qayta hikoyalash bilan qo'shib olib borish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Kurs ishimizning birinchi bobida o'quvchilarning savodxonligini oshirish, adabiyot mashg'ulotlarini yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, adabiyot darslarida qayta hikoyalashning samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasiga olib chiqish va dars jarayoniga tatbiq etishning usul va vositalari haqida tavsiyalar berishga harakat qildik.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi- bu o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. Ta'lim - tarbiyada maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishishi, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.

Ikkinchi bobimizda O`zbekiston Xalq yozuvchisi, xalq sevgan adib Said Ahmad ijodini va “Ufq” romanidan olingan “Qochoq” parchasini o`rta umumta`lim maktablarida 8-sinf o`quvchilariga qayta hikoyalash usulini turli pedagogik texnologiyalar asosida o`tish yo`llarini ochib berishga harakat qildik. Bu asarni chuqur va keng o`rganish, o`quvchilarga iste`dodli adib haqida va asardagi o`zbek xalqi haqida batafsil ma`lumot berish yo`llaridan biri hisoblanadi. Chunki Abdulla Qahhor “Ilhom va mahorat samarasi” deb nomlangan taqrizida “Ufq” haqida to`lib-toshib gapiradi, o`ziga, xalqqa manzur bo`lgan asarning fazilatlarini taqrizda ko`rsatib beradi.

Yozuvchining asarning milliyligi, mavzular olami, Said Ahmadning mahorati haqidagi mulohazalari bugun ham eskirmagan, yarqirab turibdi. Umumta`lim maktablarining 8-sinflarida Said Ahmad ijodini va uning adabiy merosini bugungi zamonaviy axborot texnologiyalariga asosan o`rganish, o`qitishning turli vositalaridan foydalanish o`quvchilarni, albatta, adabiyot olamiga yanada qiziqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot- xalqning, yoshlarning ma`naviy ozuqasi. Uni o`quvchilarga yetkazib berishda qayta hikoyalash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`z o`rni va ahamiyatiga egadir.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: “Tafakkur”, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. –T.: “Ma’naviyat”, 2017.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

### **Asosiy adabiyotlar:**

4. Qosimov. B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi.-T.: “Fan va texnologiya”, 2008.
5. Badiiy matnning lisoniy tahlili (ma’ruza matni). Navoiy, 2010.
6. Azimova. F. Badiiy asar tahlili va mutolaa madaniyati. Ziyoz.uz 12.06.2018.
7. Azizxo‘jayeva. N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: “Adabiyot jamg‘armasi”, 2006.
8. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. 1996.
9. To‘xliyev. B. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
10. Sattorova. K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini o‘stirish texnologiyalari. Guliston, 2015
11. Sul‘tonmurod Olim va b. Adabiyot (8-sinflar uchun darslik 1-qism).-T.: “G‘ofur G‘ulom”, 2017.
12. Yo‘ldoshev. Q. Mohiyatni anglash yo‘li. “Sharq yulduzi” jurnali sayti.
13. Qobilov. U. Badiiy tahlil asoslari (Ma’ruza matni). Samarqand. 2014.

14.Suyunov.H.va b.O`zbek adabiyoti o`qitishning zamonaviy texnologiyalari(ma`ruza matni).N.,2008

### **Elektron adabiyotlar:**

15.[www.prezident.uz](http://www.prezident.uz)

16.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

17.[www.google.uz](http://www.google.uz)

18.[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)